

TARBIYA JARAYONIDA O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori Dilshoda Saparboyeva
“USAT” Pedagogika fakulteti talabasi
1-bosqich talabasi Sojida To‘rayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsini axloqiy jihatdan shakllantirishning ayrim jihatlari ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Tayanch so‘zlar: tarbiya, mehr-oqibat, o‘qituvchi, ta’lim, bilim, matonatli, odam, jamiyat, xarakter, rivojlanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-oqibat, munosabat, ishonch, qadr-qimmat, bilim, shaxsiy xarakter, o‘zini o‘zi anglash, intilish, iroda, sabr- matonat, kamtarlik, shirin suxon, serfikr, vijdon kabi fazilatlarni rivojlanadir. Ushbu jarayonda uning intilishi va faolligi, yuksak cho‘qqilarga erishishi, har bir muammoni ijobjiy xal etish, mehr oqibatli bo‘lish, ustozlardan saboq olish, shaxsiy o‘sishga erishish, yangi narsalarni o‘rganish va o‘rgatish imkoniyatlariga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki o‘quvchi shaxsini shakllantirishda tarbiya jarayoni keng qamrovli bo‘lib, insonning insonligini ta’minlaydigan vosita sifatida avloddan-avlodga o‘tib boradi.

Tarbiya arabcha so‘z bo‘lib “parvarish qilish, ta’lim berish, o‘rgatish, odob o‘rgatish, mehribonlik ko‘rsatish, rahbarlik qilish, boshchilik qilish, yo‘naltirish”-ma’nolarini anglatadi. Tarbiya jarayonida ilm egallash, insonning hayot yo‘llarida, baxtsiz daqiqalarida, madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat vazifasini amalga oshiradi. Demak tarbiya inson faoliyatida yetakchi o‘rin egallaydi, axloqiy fazilatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi.

Tarbiya yosh avlodga mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko‘nikma va fazilatlarni shakllantirish asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish, o‘qish, yozish, sanash, ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati shuningdek gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarinini egallab olishni ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, savodxonlik malakalarini shakllantiradi. Tarbiya jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi kommunikativ savodxonligi, o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog‘lom bo‘lishga tabiat go‘zalliklarini xis eta olishga, nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirish, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Boshlang‘ich ta‘lim vazifalarining bajarilishini nazorat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim va tarbiyaning maqsadi ilmiylik, tushunarlik, ko‘rgazmalilik, insonparvarlik, tizimlilik kabi tamoyillarga tayangan holda o‘quvchilarning bilim ko‘nikma malakalariga qo‘yilgan talablarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayoni o‘zaro uzluksiz asosda tashkil etilgandagina axloqiy fazilatlarga ega yuksak ma‘naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom keng dunyoqarash va tafakkurga ega zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Tarbiya bolada axloqiy fazilatlarni

kafolatli shakllantirishda maktabgacha ta'limdan boshlab toki oliv ta'lim muassasalarini tugatgunga qadar amalga oshiriladi. Bu o'rinda Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasida" degan chuqur ma'ynoli so'zlariga amal qilish, o'qituvchilarining bilimlarini, pedagogik mahoratini rivojlantirishda O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Muhammad al Xorazmiy, Abu nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al Farg'oniy, Imom Ismoil al Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bohovuddin Naqshbandi, Amir Temur Muhammad Tarag'ay, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabilarning qarashlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki O'rta Osiyoning ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarida, ularning ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalarini yosh avlodning ongiga singdirishda to'g'ri foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki o'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida, ta'lim tarbiya asosida bolalarda talabchanlik, izlanish, xushyorlik, rostgo'ylik, diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususiyatlarini rivojlantirishning asosiy vositalari hisoblanadi. Al-Forobi, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk faylasuflarning asarlari jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan, O'rta Osiyo mutafakkirlarining bilim, ta'lim va tarbiya bilan bog'liq bo'lган asarlarida inson qalbi va aqlini tarbiyalash, fikr yuritish masalalari ifoda etilgan. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish asosida malakali kadr tayyorlash, har bir oila, har bir oila, har bola hayotini maktab bilan bog'lash kabilar tarbiya sifatini takomillashtirish, ilm va fan sohasini rivojini jadallashtirish taraqqiyotining tamal toshi sifatida mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bo'lib ilm-fan, ta'lim va tarbiya jarayonlari takomillashtirishda muhim hisoblanadi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Hamdamov.A.N, Shodmonova A.Sh "Pedagogika" T.:2023
2. Ulfat Mahkamov "Odob- axloq fazilatlari" T.: "Fan" 1994
3. <https://www.wikipedia.org>